GENDER YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА

IMPROVING THE TECHNOLOGY FOR DEVELOPING SOCIO-CULTURAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS BASED ON A GENDER APPROACH

Saydullaeva Aziza Raximovna
Farg’ona davlat universiteti
Pedagogika kafedrasi doktoranti

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni gender yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari, tarkibiy komponentlari va amaliy modeli yoritilgan. Mavjud muammolar tahlil qilinib, tashxisiy-motivatsion, mazmuniy-nazariy, faoliyatli-amaliy va refleksiv-baholash bosqichlaridan iborat texnologik model taklif etiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, raqamli vositalar hamda samaradorlik mezonlari va pedagogik shart-sharoitlar bayon qilinadi.

Аннотация: В статье представлены теоретико-методологические основы, структурные компоненты и практическая модель совершенствования технологии формирования социокультурной компетентности будущих педагогов на основе гендерного подхода. На основе анализа существующих проблем предложена технологическая модель, включающая диагностико-мотивационный, содержательно-теоретический, деятельностный и рефлексивно-оценочный этапы. Кроме того, в статье описаны интерактивные методы, цифровые инструменты, критерии эффективности и педагогические условия.

Abstract: The article outlines the theoretical-methodological foundations, structural components, and a practical model for enhancing the technology used to develop socio-cultural competence in prospective teachers through a gender-based approach. Following an analysis of existing issues, a technological model is proposed, comprising diagnostic-

motivational, content-theoretical, activity-based, and reflective-evaluative stages. Additionally, the article describes interactive methods, digital tools, effectiveness criteria, and pedagogical conditions.

Kalit so‘zlar: gender yondashuv, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, gender stereotip, madaniyatlararo muloqot, refleksiya.

Ключевые слова: декрет, гендерная культура, социально-педагогический, женщины, потребность, защита, гендерно-человеческий, общественно-политический, лидерство, инициатива, право, интерес.

Key words: decree, gender culture, socio-pedagogical, women, need, protection, gender and human, socio-political, leadership, initiative, law, benefit.

Kirish (Видение/Introduction). Bugungi globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida ta’lim tizimi oldiga shaxsni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki uni ijtimoiy hayotga tayyorlash, turli madaniy va ijtimoiy guruhlar bilan hamkorlik qilishga o‘rgatish vazifasi qo‘yilmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda o‘qituvchining roli hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki xulq-atvor va qadriyatlar namunasi hamdir.

O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun ta’lim sohasida ham gender tenglikni ta’minlash zaruratini belgilab berdi. Shunga qaramay, pedagogik amaliyotda gender stereotiplari, ya’ni qiz va o‘g‘il bolalarga xos deb qabul qilingan qat’iy rollar, qobiliyatlar va kasblar haqidagi tasavvurlar hali ham saqlanib qolmoqda.

Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni gender yondashuv asosida shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini gender yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini yoritish va amaliy modelini asoslashdan iborat.

Ayollar tadqiqotlari, ya’ni “women’s studies” asta-sekin gender tadqiqotlariga aylana boshladi. Bunda ijtimoiylik va madaniyatning barcha jihatlari gender o’lchoviga ega bo’lish mumkin degan fikrga asoslangan g’oyalar ilgari surildi. Bunda nafaqat feministik tadqiqotlarning mazmuni, balki tahlil shakli ham o’zgardi. Jumladan, feminizmga xos bo’lgan ayrim keskin qarashlar o’rniga barcha ijtimoiy jarayonlarda genderning mavjudligi, shakllanishi va qayta tiklanishini anglashga bo’lgan intilish kuchaydi.

Gender g’oyasi ayollar muammosini odatdagidan ko’ra kengroq miqyosda tadqiq etishni nazarda tutadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bunday yondashish “ijtimoiy tarix”dan, “madaniy tarix”ga o’tishga mos keladi. Ayollar to’g’risidagi tadqiqotlar maskulinlik va jinsiylik muammolarini o’z ichiga olgani holda mazmunan yanada kengaydi. Ushbu nuqtai nazardan gender ta’limoti “man’s studies” yo’nalishi bilan boyidi.

XX asrning 90-yillarida hokimiyat munosabatlarida gender tengligi qanday darajada ekanligi tahlil etiladi va bunda erkaklar mentaliteti tazyiqini ifodalovchi siyosiy-madaniy istioralar izohlanadi. Mazkur holatdan kelib chiqib, genderning rasmiy tan olinishi va rivojlanish tendentsiyalari dunyoning eng dolzarb muammosiga aylandi.

Eng muhimi, feminist ayollarning xatti-harakati, so’ngra gender va ilm-fan hokimiyat hamda gender o’rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan nazariyalarni o’rganish zaruriyatini kuchaytirdi. Ijtimoiy ma’noda gender tengligi nuqtai nazaridan yondashuvni shakllantirish yangi nazariya paydo bo’lishiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Bu o’z mohiyatiga ko’ra yangi nazariya bo’lib, uni tan olish ba’zan insoniy qadriyatlar o’zgarishi, ko’plab odatdagi tasavvurlar va “haqiqatlar”ning qayta ko’rib chiqilishini anglatadi, bu esa ko’pchilik uchun birmuncha og’riqli kechadi.[1]

Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik esa bevosita gender tadqiqotlari doirasida shakllandi. Mutaxassislar fikriga ko’ra, gender inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. U inson hulq - atvorining sotsial o’ziga xosligini ifoda etib, amaliyot yordamida ijtimoiy jins sifatida shakllanadi.

Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlarning me’yoriy tizimi vujudga keladi. Jamiyatda “erkaklarga oid” va “ayollarga oid” xususiyatlar to’g’risida qat’iy qaror topgan tasavvurlar sifatida paydo bo’ladi. gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ta’siri tufayli shakllangan xususiyatlar yig’indisidir.

Gender ijtimoiy-madaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. Jins faqat gender demakdir, ya’ni uning ijtimoiylashuvi natijasidir. Jins insonga tegishli emas, balki inson jinsga oiddir, u esa hokimiyatga ega.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods). “Gender tizimi” tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo’lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o’lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o’rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma’nolari ko’p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo’ldi.

Gender muammosi, eng avvalo ijtimoiy muammo ekanligi, ya’ni faqat ayolning emas, balki erkaklarning ham, jamiyatning ham muammosi ekanligini ta’kidlashga to’g’ri kelmoqda. Ular biologik jinslar va aholini ko’paytirish borasidagi vazifalar taqsimotinigina anglatmaydi, balki gender munosabatlar butun madaniyat, jamiyat qurilishi, davlat institutlarini qamrab oladi. Ular tilga, urf-odatlar va qadriyatlarga, turmush tarzi va hatto ishlab chiqarishga ham kuchli ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqotning nazariy asosini bir necha yondashuv tashkil etadi. A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, insonlar xulq-atvor va ijtimoiy rollarni kuzatish va taqlid orqali o‘zlashtiradi. Demak, o‘qituvchining shaxsiy namunasi va sinfdagi muomalasi o‘quvchilarda gender qarashlarining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. S. Bemning gender sxema nazariyasida shaxs atrofdagi olamni “erkaklik” va “ayollik” sxemalari orqali idrok etishi ta’kidlanadi; bu sxemalarni anglash va tanqidiy qayta ko‘rib chiqish stereotiplarni yengishning muhim sharti hisoblanadi.

K. West va D. Zimmerman “gender qilish” konsepsiyasida, shuningdek J. Butler asarlarida gender tayyor holda berilgan xususiyat emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sirda doimiy qayta yaratiladigan hodisa sifatida talqin etiladi. Bu qarash ta’lim muhitida o‘zgarish imkoniyati mavjudligini asoslaydi. L. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuviga ko‘ra, shaxs kompetentligi ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlikda rivojlanadi. M. Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetentlik konsepsiyasi va J.

Banksning multikultural ta’lim g‘oyalari esa turli madaniy va ijtimoiy guruhlarga hurmat va ularni tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda kompetentlik yondashuvi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va pedagogik texnologiyalar nazariyasi metodologik asos sifatida qo‘llaniladi. Pedagogik texnologiya maqsad, mazmun, metod, vosita, tashkiliy shakl va natijani diagnostika qilishni o‘z ichiga olgan izchil, kafolatli natijaga yo‘naltirilgan jarayon sifatida qaraladi.

Natijalar (Результаты/Results). Har bir davrning o‘z taraqqiyot omili, ehtiyoji, talabi va hayotiy tamoyillari mavjud. Tabiiyki, ularni shakllantirish va rivojlantirish, ularga alohida ma’no-mazmun bag‘ishlash, bu davrda davlat, jamiyat hayoti, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatining aniq yo‘nalishlarini belgilab beruvchi ulkan tarixiy voqealar bo‘ladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog‘lig‘ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender tenglikni ta’minlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish maqsadida ko’plab farmon va qonunlar ishlab chiqildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining gender yondashuvga asoslangan ijtimoiy-madaniy kompetentligi quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat:

- kognitiv komponent: gender nazariyasi, jamiyatdagi gender munosabatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, me’yoriy-huquqiy asoslar haqidagi bilimlar;
- qadriyatli-motivatsion komponent: tenglik, o‘zaro hurmat va adolat qadriyatlarini qabul qilish hamda kasbiy faoliyatga ijobiy munosabat;
- faoliyatli (amaliy) komponent: gender sezgir dars loyihalash, darslik va o‘quv materiallaridagi stereotiplarni aniqlash, sinfda teng muloqot muhitini yaratish ko‘nikmalari;
- kommunikativ komponent: o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan hurmatli va gender neytral muloqot o‘rnatish;

• refleksiv komponent: o‘z stereotiplarini anglash va o‘z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qilish qobiliyati.

Bu komponentlarning birligi kompetentlikning yaxlit shakllanishini ta’minlaydi. Birortasining yetarli rivojlanmasligi, masalan, nazariy bilim mavjud bo‘lib, amaliy ko‘nikmaning bo‘lmasligi, kutilgan natijaga erishishga to‘sqinlik qiladi.

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Xotin-qizlarga ta’lim olishlari uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning ilmiy salohiyati va malakasini tizimli oshirib borishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab:

- oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlarda, shu jumladan sirtqi va kechki ta’lim shaklida o‘qiyotgan xotin-qizlarning ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz ta’lim kreditlarini moliyalashtirish maqsadida tijorat banklariga Davlat byudjetidan har yili 1,8 trillion so‘m resurs mablag‘lari yo‘naltirilsin;

-davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, Davlat byudjetidan har yili kamida 200 milliard so‘m moliyalashtirilsin;

-xorijiy oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim dasturlari bo‘yicha — 50 nafar, magistratura ta’lim dasturlari bo‘yicha — 10 nafar xotin-qizlarga har yili «El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratib borilsin;

-har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda — Qo‘mita) tavsiyalariga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan 150 nafardan jami 2 100 nafar ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning ta’lim kontraktlari mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan qaytarish shartisiz qoplab borilsin;

-mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Qo‘mita tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish amaliyoti joriy etilsin;

-davlat ilmiy tashkilotlari yoki oliy ta’lim muassasalari doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratib borilsin.

Ushbu masalar bo’yicha xotin qizlarimizga davlatimiz tomonidan katta yordam berish masalalari ko’rib chiqildi va ijrosi ta’minlanishi tasdiqlandi.

O‘zbekistonda «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar» doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida «Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish» belgilangan.

O‘zbekistonda «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar» doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida «Gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish» belgilangan.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, gender yondashuvni joriy etishda talabalar orasida turlicha munosabat kuzatilishi mumkin. Ayrim talabalar bu mavzuni milliy qadriyatlarga zid deb qabul qilishi ehtimoli bor. Shu sababli mashg‘ulotlarda hurmatli muloqot, turli fikrlarni tinglash va dalillarga asoslangan munozara madaniyatini shakllantirish muhim. Gender yondashuv yakka bir qarashni majburan qabul qildirish emas, balki har bir shaxsning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi qolipli tasavvurlarni tanqidiy anglashga yordam berish vositasi sifatida taqdim etilganda samaraliroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, texnologiyaning barqarorligi o‘qituvchilar jamoasining tayyorgarligiga ham bog‘liq. Agar professor-o‘qituvchilar o‘z faoliyatida gender tenglik tamoyillariga amal qilmasa, talabalar bilan olib borilgan ishlarning ta’siri kamayadi. Shu bois texnologiyani joriy etish bilan parallel ravishda pedagoglarning malakasini oshirish, metodik qo‘llanmalar tayyorlash va tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Xulosa (Заключение/Conclusion). Xulosa qilganda aytganda bunday erkin faoliyat mamlakatimizda xotin-qizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar tufaylidir. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi gender stereotiplaridan xoli, ijtimoiy-madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qaraydigan, tenglik va adolat muhitini yarata oladigan kasbiy shaxs sifatida shakllanadi. Binobarin, bugungi kunda xotin-qizlar ijtimoiy siyosiy faolligini oshirish borasidagi mavjud masalalar yuzasidan fikr almashish maqsad qilib qo‘yilgan.

Foydananilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: o’zbekiston. 1992. – 17-21 6.
2. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). PEDAGOGICAL BASIS OF THE USE OF UNIVERSAL AND NATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *Palarch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, *17*(7), 8547-8555.
3. Raximovna, S. A. (2022). Development of Gender Culture. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, *16*, 88-92.
4. Сайдуллаева, А. Р. (2022). НАЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, *2*(18), 705-711.
5. Эгамбердиева, Т., & Мансурова, М. (2021). Духовно-нравственное учение Абдуллы Авлони. *Общество и инновации*, *2*(10/S), 73-78.